O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TOSHKENT SHAHRI HOKIMINING

QARORI

2024-yil 17-oktabr 743-14-0-Q/24 Toshkent shahar hokimligi

“Yangi avlod” maxsus sanoat zonasida yer uchastkalariga bo‘lgan ijara huquqining boshlang‘ich narxi, umumiy mulkni saqlash uchun yillik to‘lov stavkasi va investitsiya loyihalarining qurilish muddatlarini belgilash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Toshkent shahrida “Yangi avlod” maxsus sanoat zonasini tashkil etish to‘g‘risida” 2024-yil 20-martdagi PQ–138-son va Vazirlar Mahkamasining “Toshkent shahrining Yangihayot tumanida “Yangi avlod” maxsus sanoat zonasini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 4-sentabrdagi 538-son qarorlariga muvofiq, mas’uliyati cheklangan jamiyat shaklidagi “Yangi avlod” boshqaruvchi kompaniyasining 2024-yil 7-oktabrdagi 01/61-son taklifi va “Toshkent viloyati baholash va konsalting markazi” MChJning 27-sentabrdagi 289-2024-son baholash xulosasiga asosan, shuningdek, Toshkent shahrida yangi imkoniyatlar yaratish orqali sanoat mahsulotlarini ishlab chiqish hajmini oshirish, mavjud zaxiralardan to‘liq va samarali foydalanish, sanoat kooperatsiyasi va mahalliylashtirish loyihalarini kengaytirish maqsadida

Q A R O R Q I L A M A N:

1. “Yangi avlod” maxsus sanoat zonasi (keyingi o‘rinlarda – “Yangi avlod” MSZ) hududida quyidagilar:

2024-2025-yillar uchun “Yangi avlod” MSZni ichki infratuzilma obyektlarini qurish ishlarining bir qismini moliyalashtirish hamda ma’muriy saqlash xarajatlarini qoplash uchun umumiy mulkni saqlash bo‘yicha 1 gektar yer uchastkasi yillik to‘lov stavkasi 317 500 200 (uch yuz o‘n yetti million besh yuz ming ikki yuz) so‘m etib;

2024-yil uchun “Toshkent viloyati baholash va konsalting markazi” MChJning 2024-yil 27-sentabrdagi 289-2024-son baholash xulosasiga asosan, 1 gektar yer uchastkasiga bo‘lgan ijara huquqining boshlang‘ich narxi 1 269 979 869 (bir milliard

ikki yuz oltmish to‘qqiz million to‘qqiz yuz yetmish to‘qqiz ming sakkiz yuz olmish to‘qqiz) so‘m etib belgilansin.

2. “Yangi avlod” MSZ hududida amalga oshiriladigan investitsiya loyihalar bo‘yicha takliflarini ko‘rib chiqish yuzasidan Toshkent shahar ishchi komissiyasi, mas’uliyati cheklangan jamiyat shaklida “Yangi avlod” maxsus sanoat zonasi boshqaruvchi kompaniyasi (F.Abdusolomov):

“Yangi avlod” MSZ hududida joylashgan yer uchastkalarini belgilangan narxda “E-auksion” elektron savdo platformasi orqali elektron onlayn-auksion savdolariga chiqarish;

“Yangi avlod” MSZ ishtirokchilari bilan umumiy mulkni saqlash bo‘yicha tegishli shartnomalarni rasmiylashtirish choralarini ko‘rsin.

3. Toshkent shahar hokimning o‘rinbosari (Sh.Raxmonov), Toshkent shahar Investitsiyalar, sanoat va savdo boshqarmasi (A.Shovkatov) mas’uliyati cheklangan jamiyat shaklida “Yangi avlod” maxsus sanoat zonasi boshqaruvchi kompaniyasi (F.Abdusolomov) bilan birgalikda “Yangi avlod” MSZ hududida investor tomonidan olib boriladigan qurilish ishlarining muddatlari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Tadbirkorlik va shaharsozlik faoliyatini amalga oshirishda er resurslarining investitsiyaviy imkoniyatlaridan samarali foydalanish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 6-sentabrdagi PF–135-son Farmonida belgilangan muddatlardan oshmagan holda investitsiya buyurtmanomasida ko‘rsatilib, ushbu muddatlarda bajarilishini qat’iy nazoratga olsin.

4. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish Toshkent shahar hokimining o‘rinbosari Sh.Raxmonov zimmasiga yuklansin.

Toshkent shahar hokimi **Sh.Umurzakov**